YUNESKO ta'rifida esa biotexnologiyani jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilish maqsadini alohida ta'kidlaydi: "Mahsulotlar ishlab chiqarish yoki ularni yaxshilash, o'simlik va hayvonlarni takomillashtirish hamda muayyan maqsadlar uchun mikroorganizmlarni rivojlantirish maqsadida biologik organizmlar, jarayonlar va tizimlardan foydalanish" [11].

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim hujjat Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1992-yilgi Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyasining 2-moddasi hisoblanadi. Ushbu konvensiyada biotexnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Biologik tizimlar, tirik organizmlar yoki ularning hosilalaridan ma'lum bir maqsadda mahsulot yoki jarayonlarni yaratish yoki o'zgartirish uchun foydalanadigan har qanday texnologik qo'llash" [12]. Bu ta'rif xalqaro huquqda biotexnologiyaning rasmiy ta'rif sifatida qabul qilingan va ko'p-lab milliy qonunchilik tizimlarida asos bo'lib xizmat qiladi. Konvensiyaning ahamiyati shundaki, u biotexnologiya sohasidagi xalqaro huquqiy munosabatlar uchun umumiy konseptual asos yaratadi va milliy huquq tizimlarining konvergensiya uchun poydevor bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan keng qamrovli tahlil va turli manbalardagi yondashuvlarni sintez qilish asosida tadqiqot natijasi sifatida biotexnologiya haqida quyidagi mualliflik ta'rifini ishlab chiqildi: "Biotexnologiya – bu tirik organizmlar, ularning qismlari, biologik jarayonlari va molekulyar tuzilmalaridan foydalangan holda, fan, texnologiya va ishlab chiqarish usullarini integrallashtiruvchi tarmoqlararo soha bo'lib, inson hayotini yaxshilash, iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit muammolarini hal qilish va jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi mahsulot, xizmat va texnologiyalar yaratishga qaratilgan, yuqori etik va huquqiy mas'uliyat talab qiladigan ilmiy-amaliy faoliyat turidir".

Ushbu ta'rifning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, u biotexnologiyaning tarmoqlararo tabiati, ijtimoiy mas'uliyat talabi va huquqiy-etik jihatlarni alohida ta'kidlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning quyidagi mualliflik ta'rifini ishlab chiqildi: "Biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar – bu tirik organizmlar, ularning qismlari, biologik jarayonlar, gen-

muhandislik mahsulotlari va biotexnologik ixtirolar ustidan mulkiy huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk huquqlarining amalga oshirilishi; biotexnologik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan shartnomaviy-huquqiy majburiyatlar va fuqarolik-huquqiy javobgarlik, shuningdek, biotexnologiya bilan bog'liq etik va huquqiy me'yorlar ta'siri ostida shakllanadigan, shaxslarning teng huquqli asosda ishtirok etishi, davlat tomonidan himoya qilinishi hamda maxsus tartibga solishni talab qiladigan ijtimoiy munosabatlardir".

Bu ta'rif biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barcha asosiy komponentlarini qamrab oladi va an'anaviy fuqarolik huquqidan farqlovchi xususiyatlarni aks ettiradi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, milliy va xorijiy olimlar tomonidan biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar shu vaqtga qadar alohida o'rganilib, ta'rifini ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot davomida biotexnologiyaning oltita asosiy sohaga bo'linishi aniqlandi: qizil (tibbiy), yashil (qishloq xo'jaligi), oq (sanoat), kulrang (atrof-muhit), ko'k (dengiz) va binafsha (huquqiy) biotexnologiya. Har bir soha o'ziga xos huquqiy xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Olingan tadqiqot natijalarini chuqur tahlil qilish asosida biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning bir qancha asosiy xususiyatlari tizimli tarzda ko'rib chiqildi. Har bir xususiyat o'z ijtimoiy-iqtisodiy sabablari va huquqiy oqibatlari bilan birga tahlil qilindi.

Birinchi xususiyat: tarmoqlararo (Interdissiplinar)lik va fanlararo integrallashtirish. Biotexnologiya sohasidagi huquqiy masalalarni hal qilish uchun nafaqat huquqiy bilimlar, balki biologiya, kimyo, tibbiyot va boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilim ham talab etiladi. Bu xususiyat sud jarayonlarida ekspert xulosalarining muhim ahamiyat kasb etishiga olib keladi. Masalan, genetik

modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)ga oid patent nizolarini ko'rib chiqishda sudlar genetik muhandislik jarayonlarining murakkab texnik jihatlari bilan tanishishlari shart. "PLOS Biology" jurnalida ta'kidlanganidek, biotexnologiya "tadqiqot va innovatsiyalar frontida turgan va so'nggi yillarda tez rivojlangan inqilobiy fan sohasi" hisoblanadi [13]. Bu tarmoqlararo tabiat shartnoma tuzish, patent tayyorlash va sud jarayonlarida maxsus malakaga ega mutaxassislar jalb qilishni taqozo qiladi.

Ikkinchi xususiyat: dinamiklik va texnologik tezkorligi. Biotexnologiya sohasidagi texnologiyalarning tez o'zgaruvchi tabiati huquqiy tartibga solish tizimidan uzluksiz moslashishni talab qiladi. CRISPR-Cas9 texnologiyasining paydo bo'lishi bu holatga yorqin misoldir. 2012-yilda kashf etilgan bu texnologiya asoschilari 2020-yilga kelib Nobel mukofoti bilan taqdirlandi [14] va hozirda bu texnologiya tibbiyotda keng qo'llanmoqda. CRISPR-Cas9 – genetik muhandislikni tez, aniq va nisbatan arzon usulda amalga oshirish imkonini beruvchi inqilobiy biotexnologik vosita bo'lib, tibbiyotda irsiy kasalliklarni davolash, qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlikka ega o'simlik va hayvonlar yaratish, shuningdek, fundamental ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanmoqda. Biroq mavjud qonunchilik ushbu yangi texnologiyani tartibga solish uchun tezda yangilanishi va mavjud yangiliklarga javob berishi kerak.

Uchinchi xususiyat: yuqori noaniqlik va risk faktori. Michael G. Pappasning tadqiqotlariga ko'ra, biotexnologiya sanoatidagi tadqiqot xarajatlari juda yuqori bo'lib, bir kunlik eksperiment ming dollarlab xarajat talab qiladi [4]. Bu yuqori xarajatlar va noaniq natijalar shartnomaviy munosabatlarda maxsus risk taqsimoti mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Biotexnologiya shartnomalarida maqsadli to'lovlar (milestone payments) tizimi aynan shu noaniqlikni boshqarish uchun ishlab chiqilgan. Biotexnologiya kelishuvida 10 ga yaqin maqsadli to'lov nazarda tutiladi.

To'rtinchi xususiyat: xalqaro xarakter va global integrallashtirish. Biotexnologiya mahsulotlari va xizmatlarining global tabiati milliy huquq tizimlari konvergensiya tendensiyasini kuchaytiradi. 2023-yilda Merck, GSK va AstraZeneca kabi kompaniyalar xitoylik dori ishlab chiqaruvchilar bilan 44,1 milliard dollarlik biotexnologiya litsenziyalash shartnomalari tuzdilar [15]. Bu miqdor biotexnologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikning qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. CRISPR-Cas9 texnologiyasi bo'yicha patent nizolari AQSh, Yevropa, Yaponiya va Xitoyda parallel ravishda ko'rib chiqilayotgani ham xalqaro xarakterning yorqin namunasi hisoblanadi [16].

Beshinchi xususiyat: etik-huquqiy duallik va ijtimoiy mas'uliyat. Biotexnologiya sohasidagi ilmiy imkoniyatlar va axloqiy cheklolar o'rtasidagi doimiy taranglik bu sohani huquqiy tartibga solishda etik komponentning alohida o'rnini belgilaydi. CRISPR-Cas9 texnologiyasi kelajak avlodlar genetik identifikatsiyasiga ta'sir qilishi va kelgusi avlodlarning roziligi haqida etik savollar tug'diradi. Greer, Trump va Davies o'z tadqiqotlarida biotexnologiya boshqaruvida etik, huquqiy va ijtimoiy oqibatlar masalalarining muhimligini ta'kidlaydi [1]. Masalan, 2024-yilning sentabr oyida Yevropa Patent idorasi inson-cho'chqa ximeralariga oid patent arizasini "inson qadr-qimmatini buzish" asosida rad etgan. Bu biotexnologiya patentlariga qo'yiladigan axloqiy cheklolarga aniq misoldir [17].

Oltinchi xususiyat: yuqori kapitallashuv va uzoq investitsiya sikli. 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, biotexnologiya startaplari o'rtacha 47 million AQSh dollari miqdorida ventur kapitali jalb qildi [18], bu boshqa sohalarga qaraganda uch barobar ko'p degani. Yangi biologik dori ishlab chiqarish xarajatlari milliard dollargacha yetishi mumkin va bu 15-20 yil vaqt talab qiladi [19]. Bu holat shartnomaviy munosabatlarda maxsus moliyaviy mexanizmlar va risk taqsimoti usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Biotexno-

logiya kompaniyalari ko'pincha daromadsiz holda IPO (Initial Public Offering) jarayoniga chiqadi, bu esa an'anaviy baholash usullarini qo'llashni qiyinlashtiradi.

Yettinchi xususiyat: regulativ murakkablik va ko'p darajali nazorat. AQShda Oziq-ovqat va farmatsevtika boshqarmasi (FDA), Atrof-muhitni muhofaza agentligi (EPA) va Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA) kabi idoralar biotexnologiya mahsulotlarini qat'iy nazorat qiladi. Ta'kidlash lozimki, 2024-yilda AQSh Oliy sudi Loper Bright Enterprises v. Raimondo ishida Shevron doktrinasining bekor qilinishi regulativ tartibga solish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi [21] va biotexnologiya sohasidagi tartibga solish amaliyotini o'zgartirdi.

Tadqiqot natijalari asosida biotexnologiyaning har bir sohasi o'ziga xos huquqiy muammo va yechimlar talab qilishi aniqlandi. Bu tahlil zamonaviy huquqshunoslikda alohida sohaviy yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi.

Tibbiy biotexnologiya (Qizil biotexnologiya) sohasida eng murakkab huquqiy masalalar klinik sinovlar, patent himoyasi va mahsulot javobgarligi bilan bog'liq. 2024-yilda FDA tomonidan Casgevy dorisining tasdiqlanishi CRISPR-Cas9 texnologiyasidan foydalangan holda yaratilgan birinchi gen-tahrirlash terapiyasi bo'ldi [19]. Bu voqea tibbiy biotexnologiya sohasidagi huquqiy munosabatlarning yangi bosqichini belgilab berdi. Tibbiy biotexnologiya mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari 2,8 milliard dollargacha yetishi mumkin [22], bu esa shartnomaviy munosabatlarda maxsus moliyaviy tizimlar talab qiladi.

2024-yilda tibbiy biotexnologiya sohasida yirik litsenziyalash kelishuvlari tuzildi. Novartis kompaniyasi xitoylik Shanghai Argo Biopharmaceutical bilan 4,165 milliard dollargacha bo'lgan kelishuv imzoladi. Sanofi esa Novavax bilan COVID-19 vaksinalari bo'yicha 1,2 milliard dollarlik kelishuv tuzdi [23]. Bu misollar tibbiy biotexnologiya sohasidagi

shartnomaviy munosabatlarning murakkabligi va yuqori moliyaviy qiymatini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi (Yashil biotexnologiya) sohasida asosiy huquqiy masalalar GMO mahsulotlari aylanmasi, patent huquqlari va fermerlar bilan biotexnologiya kompaniyalari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, so'nggi yillarda gen-tahrirlash (CRISPR/Cas9) texnologiyalari yordamida iqlim o'zgarishiga qarshi chidamli yangi o'simliklar yaratish bo'yicha sezilarli ilmiy yutuqlar qayd etildi. Masalan, 2024-yilda terak daraxti – populus (poplar) turlarida qurg'oqchilikka chidamli genlar tahrir qilindi [24], bu esa o'simliklarda suv isrofini kamaytirish va stressga chidamliligini oshirishga xizmat qildi. Bu sohadagi huquqiy munosabatlar, ayniqsa, atrof-muhit himoyasi talablari va xalqaro savdo qoidalari bilan murakkablashadi.

Sanoat biotexnologiyasi (Oq biotexnologiya), asosan, texnologiya transferi, intellektual mulk huquqlari hamda sanoat hamkorlik shartnomalari atrofida shakllanadi. Atrof-muhit biotexnologiyasi (Kulrang biotexnologiya) esa atrof-muhitni muhofaza qilish majburiyatlari va davlat-xususiy sheriklik shartnomalari bilan bog'liq. Dengiz biotexnologiyasi (Ko'k biotexnologiya) esa dengiz resurslaridan foydalanish huquqlari hamda xalqaro suvlar huquqiy rejimi masalalarini o'z ichiga oladi.

Huquqiy biotexnologiya (Binafsha biotexnologiya) biotexnologiya sohasidagi intellektual mulk huquqlari, patent himoyasi va axloqiy masalalar bilan bog'liq yo'nalish hisoblanadi [25]. Bu soha aynan biotexnologiya ixtirolarini patentlash, gen ma'lumotlarining huquqiy himoyasi va bioaxloq standartlaridan tashkil topgan.

Ashyo huquqi institutining qo'llanishi. Biotexnologiya mahsulotlarini an'anaviy fuqarolik huquqidagi "ashyo" tushunchasi doirasiga kiritish nazariy va amaliy muammolar tug'diradi. Klassik fuqarolik huquqida ashyolar

moddiy va o'zgaras xususiyatlarga ega deb hisoblanadi. Biotexnologiya mahsulotlari esa dinamik yoki tirik organizmlardan olingan bo'lib, ularning xususiyatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.

AQSh Oliy sudi 1980-yildagi *Diamond v. Chakrabarty* ishida genetik muhandisligi yordamida yaratilgan bakteriya patentlanishi mumkinligini e'lon qildi [26]. Bu qaror biotexnologiya patentlash amaliyotining poydevorini yaratdi.

2024-yildan CRISPR-Cas9 texnologiyasi bo'yicha patent nizolari butun dunyo bo'ylab davom etmoqda. Butunjahon Intellektual Mulk tashkiloti (WIPO) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu texnologiya bo'yicha patent landshafti tobora murakkablashib bormoqda [27]. Bu holat biotexnologiya mahsulotlarining huquqiy maqomini belgilashning qanchalik murakkab ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 2024-yil biotexnologiya huquqi uchun o'zgarishlar yili bo'ldi. Mazkur yildagi eng muhim rivojlanishlar to'rtta asosiy yo'nalishda kuza-tildi.

Birinchi yo'nalish: litsenziyalash keli-shuvlarida paradigma o'zgarishi. GlobalData tahlilchilari ma'lumotlariga ko'ra, II faza dorilar uchun dastlabki to'lovlar 2022-yil-dan 2024-yilgacha 460 %ga oshdi [28]. Bu dramatik o'sish biotexnologiya kompaniya-larining yangi mahsulotlar uchun katta mab-lag'lar sarflashga tayyorligini ko'rsatadi. Lit-senziyalash kelishuvlari soni ham 2023-yilga nisbatan 3,5 % oshdi, bu sohaning tiklanish fazasida ekanligini bildiradi.

Eng yirik kelishuvlar orasida Novartis va Shanghai Argo o'rtasidagi 4,165 milliard dol-larlik shartnoma, Sanofi va Novavax o'rtasida-gi COVID-19 vaksinalari bo'yicha 1,2 milliard dollarlik kelishuv hamda Sarepta Therapeutics va Arrowhead Pharmaceuticals o'rtasidagi 1,1 milliard dollarlik RNK interferensiya kelishuvi alohida e'tiborga molikdir. Bu miqdorlar bio-texnologiya sohasidagi moliyaviy oqimlarning qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'nalish: patent huquqlarida fundamental o'zgarishlar. 2024-yilning fevral oyida University of South Florida Board of Trustees v. United States ishida Federal apel-latsiya sudi Bayh-Dole qonuni bo'yicha hu-kumat litsenziyasi orqaga qaytib qo'llanishi mumkinligini belgilab berdi [29]. Bu qaror universitetlar va biotexnologiya kompaniya-lari o'rtasidagi hamkorlik shartlarini sezilarli o'zgartirdi, chunki endi hukumat oldingi ishlarga ham litsenziya huquqlarini qo'llashi mumkin.

Yana bir muhim rivojlanish uchinchi apel-lyatsiya sudining *Ares Trading S.A. v. Dyax Corp.* ishida patent suiiste'mol doktrinasi bo'yicha chiqargan qarori hisoblanadi. Sud patent muddati tugagandan keyin litsenziya (royalti) to'lovlarining ba'zi hollarda qonuniy ekanligini tasdiqladi, bu litsenziya kelishuvla-rida yangi imkoniyatlar yaratdi.

Uchinchi yo'nalish: javobgarlik sohasidagi inqilobiy o'zgarishlar. 2024-yilning oktabrida Yevropa Ittifoqi Kengashi yangi Mahsulot Javobgarligi Direktivasini qabul qildi [30]. Bu direktiva 40 yil davomida mavjud bo'lgan javobgarlik tizimini tubdan o'zgartirdi. Yangi direktiva biotexnologiya mahsulotlari, jum-ladan, sun'iy intellekt (AI) va AI dasturlari uchun maxsus javobgarlik rejimini belgilab beradi.

Direktivaning eng muhim yangiligi – bu da'vogarlar uchun isbotlash yukini yengil-lashtiruvchi prezumpsiyalar kiritilganligidir. Endi mahsulotning nuqsonli ekanligi yoki sa-bab-oqibat bog'liqligini isbotlash osonlasha-di. Bu o'zgarish biotexnologiya kompaniyalari uchun javobgarlik riskini sezilarli oshiradi va yangi sug'urta strategiyalarini talab qiladi.

To'rtinchi yo'nalish: regulativ muhitdagi tizimli o'zgarishlar. 2024-yilda AQSh Oliy su-dining *Loper Bright Enterprises v. Raimondo* qarori federal agentliklarning tartibga solish vakolatlarini cheklab qo'ydi [21]. Bu qaror 40 yil davomida mavjud bo'lgan Chevron doktrinasini bekor qildi va biotexnologiya so-hasidagi FDA, EPA va USDA kabi idoralarning

qarorlariga nisbatan sudda shikoyat qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Corner Post, Inc. v. Bd. of Governors ishida Oliy sud federal agentlik harakatlariga qarshi da'vo qo'zg'atish muddatini uzaytirdi. Endi 6 yillik muddat agentlik "yakuniy qaror" chiqargan paytdan emas, balki da'vogar zarar ko'rgan paytdan hisoblanadi. Bu o'zgarish biotexnologiya sohasida reguliyativ qarorlarga qarshi da'volar sonini sezilarli oshirishi mumkin.

Beshinchi yo'nalish: etik va axloqiy masalalarning institutsionallasishi. 2024-yilda Stanford universiteti tadqiqotchilari "Ethical Licensing Restrictions" konsepsiyasini ishlab chiqdi [32]. Bu yondashuv patent egalariga o'z texnologiyalaridan etik jihatdan noto'g'ri foydalanishni cheklab qo'yish imkonini beradi. CRISPR-Cas9 kabi gen tahrirlash texnologiyalari uchun bu juda dolzarbdir.

Duke universiteti APOE genlari bo'yicha patentlardan foydalanib, Alsgeymer kasalligi genetik testlarini cheklash misolida ko'rsatilganidek, etik litsenziyalash cheklovlari amalda qo'llanishi mumkin. Ushbu yondashuv patent tizimini texnologiyalarning samarali rivojlanishini ta'minlash vositasi sifatida ishlatishga imkon beradi.

Tadqiqot jarayonida bir qator metodologik va amaliy muammolar yuzaga keldi. Birinchi muammo biotexnologiya ta'riflarining xilma-xilligi va ularning huquqiy ahamiyatini baholashning qiyinligi edi. Bu muammoni hal qilish uchun eng nufuzli xalqaro tashkilotlar ta'riflari taqqosiy tahlil etildi va Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya ta'rifi asos sifatida qabul qilindi.

Ikkinchi muammo fuqarolik-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tizimli tasniflashning murakkabligi edi. Bu muammoni hal qilish uchun tarmoqlararo yondashuv qo'llandi va bir nechta asosiy xususiyat aniqlanib, har biri chuqur tahlil qilindi.

Uchinchidan, zamonaviy ma'lumotlarning yetishmasligi muammosi mavjud edi. Bu

muammoni hal qilish uchun 2024-yilgi eng so'nggi sud qarorlari, litsenziyalash kelishuvlari va reguliyativ o'zgarishlar keng qamrovli o'rganildi.

To'rtinchidan, turli huquq tizimlaridagi yondashuvlarni taqqoslashning murakkabligi mavjud edi. Bu muammo AQSh, Yevropa Ittifoqi va boshqa yirik huquq tizimlaridagi rivojlanishlarni parallel tahlil qilish orqali hal etildi.

Shartnoma huquqi institutining qo'llanishi. Biotexnologiya sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari:

1. *Noaniqlik darajasining yuqoriligi.* Biotexnologiya mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni ko'plab noma'lum omillarni o'z ichiga oladi. 2024-yilgi tahlillarga ko'ra, biotexnologiya sanoatida tadqiqot xarajatlari bir kunlik eksperiment uchun bir necha ming dollargacha yetishi mumkin.

2. *Maqsadli to'lovlar tizimining murakkabligi.* Rivojlanish bosqichlariga erishganda to'lanadigan maqsadli to'lovlar keng qo'llanadi. Biotexnologiya kelishuvida 10 ga yaqin maqsadli to'lov nazarda tutildi. Novartis-Shanghai Argo kelishuvida 185 million dollarlik dastlabki to'lov va jami 4,165 milliard dollargacha maqsadli to'lovlar belgilandi [23].

3. *Intellectual mulk huquqlarining murakkab taqsimlanishi.* 2024-yilda Shareholder Representative Services LLC v. Alexion Pharmaceuticals, Inc. ishida Delaware Court of Chancery "tijorat jihatidan oqilona sa'y-harakatlar" (commercially reasonable efforts) standartini obyektiv ("outward-facing") yondashuv asosida talqin qilib [32], biotexnologik shartnomalarda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishda obyektiv me'yorlarning ahamiyatini ta'kidladi.

4. *Qonunchilikdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlik.* 2024-yilda Loper Bright Enterprises v. Raimondo ishida AQSh Oliy sudi Chevron doktrinasini bekor qildi. Bu qaror biotexnologiya sohasidagi reguliyativ tartibga solish amaliyotini sezilarli o'zgartirdi.

5. *Xalqaro xarakter va ko'p huquq tizimlariga bo'ysunish.* 2024-yilda biotexnologiya kompaniyalari litsenziyalash kelishuvlarida o'rtacha 33 % ko'proq investitsiya kiritdi [28]. Bu ko'rsatkich global integratsiya jaryonlarining kuchayganligini ko'rsatadi.

6. *Etik litsenziyalash cheklovlari (Ethical Licensing Restrictions).* Bu yondashuv patent egalari o'z ixtirolaridan noto'g'ri foydalanishning oldini olish imkonini beradi.

Javobgarlik institutining qo'llanishi. Fuqarolik javobgarlik instituti biotexnologiyaga oid munosabatlarga nisbatan qo'llanishida quyidagi jihatlar mavjud:

1. *Zarar yuzaga kelishidagi kechikish.* Biotexnologiya mahsulotlarining salbiy ta'siri darhol namoyon bo'lmasligi mumkin. Ba'zi hollarda zarar bir necha yil yoki hatto o'n yillardan keyin aniqlanadi. Bu holatda javobgarlik muddatlarini belgilash va isbotlash masalalari murakkablashadi.

2. *Sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashning qiyinligi.* Biotexnologiya sohasida sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash [33] an'anaviy delikt huquqidan ancha murakkabdir. Biotexnologiya mahsulotlarining salbiy ta'siri ko'p omilli bo'lishi mumkin. Genetik, atrof-muhit va hayot tarzi omillari bilan o'zaro ta'sir natijasida zarar yuzaga kelishi mumkin, bu esa aniq sababni aniqlashni qiyinlashtiradi.

3. *Zarar hajmining kattaligi.* Yuqori riskli xususiyatlari tufayli biotexnologiya sohasidagi hodisalar millionlab odamga ta'sir qilishi ehtimoli bor [34]. Masalan, genetik modifikatsiyalashgan organizmlarning atrof-muhitga chiqishi yoki dori preparatlarining keng miqyosdagi salbiy ta'siri katta moliyaviy zararlar keltirib chiqarishi mumkin.

4. *Mahsulot javobgarligi (Product Liability).* Mahsulot javobgarligi biotexnologiya sohasida maxsus murakkablikka ega. An'anaviy mahsulot javobgarlik qonunlari biotexnolo-

giya mahsulotlarining xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Qat'iy javobgarlik (strict liability) biotexnologiya mahsulotlariga qo'llanishida munozarali masalalar mavjud.

5. *Atrof-muhit (ekologik) javobgarligi.* Center for Biological Diversity v. United States Environmental Protection Agency (2024) ishida EPA FIFRA talablarini buzganligi sababli dikamba herbitsidlari bo'yicha javobgar deb topildi [35]. Bu ish biotexnologiya sohasidagi atrof-muhit javobgarligining dolzarbligini ko'rsatdi.

6. *Kasbiy javobgarlik.* Kasbiy javobgarlik biotexnologiya sohasida maxsus xususiyatlarga ega [36]. Tadqiqotchilar, laborantlar, biotexnologiya maslahatchilari va tartibga solish mutaxassislari kasbiy xatolar uchun javobgar bo'lishi mumkin.

Xulosalar

Biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar an'anaviy huquq institutlaridan sezilarli darajada farqlanadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular yuqori darajadagi noaniqlik, risk va dinamiklik bilan ajralib turadi hamda etik, xalqaro va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois biotexnologiya uchun maxsus huquqiy institutlar ishlab chiqilishi, an'anaviy shartnoma, ashyo va javobgarlik konsepsiyalari qayta ko'rib chiqilishi lozim. Risklarni taqsimlash mexanizmlari maxsus sug'urta tizimi va xalqaro huquqiy uyg'unlashtirishni talab etadi. Ushbu sohani samarali huquqiy tartibga solish uchun tarmoqlararo, qiyosiy-huquqiy va empirik tadqiqotlarni kengaytirish muhimdir.

Umuman, biotexnologiyaning tez rivojlaniishi huquqiy tartibga solishda moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu sababli nazariy asoslarni mustahkamlash va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Greer S.L., Trump B.D., Davies S.W. Governing biotechnology to provide safety and security and address ethical, legal, and social implications. *Frontiers in Bioengineering and Biotechnology*, 2023, vol. 13, no. 10. DOI: 10.3389/fgene.2022.1052371.
2. Stasi A. *Biotechnology Law and Policy: Emerging Legal Issues, Cases and Materials*. Singapore, Springer, 2023, p. 149.
3. Jasanoff S. *Reframing rights: Bioconstitutionalism in the genetic age*. Cambridge, MIT Press, 2011, p. 320.
4. Pappas M.G. *Legal Issues in Biotechnology*. Totowa, Humana Press, 1994, pp. 145–178. DOI: 10.1007/978-1-4612-0293-6_5.
5. Greer S.L., Trump B.D. Regulation and regime: The comparative politics of adaptive regulation in synthetic biology. *Policy Sciences*, 2019, vol. 52, no. 4, pp. 505–524. DOI: 10.1007/s11077-019-09356-0.
6. Ereky K. *Biotechnologie der Fleisch-, Fett- und Milcherzeugung im landwirtschaftlichen Grossbetriebe [Biotechnology of meat, fat and milk production in large-scale agricultural operations]*. Berlin, Parey, 1919, p. 84.
7. Watson J.D., Crick F.H.C. Molecular structure of nucleic acids: a structure for deoxyribose nucleic acid. *Nature*, 1953, vol. 171, iss. 4356, pp. 737–738. DOI: 10.1038/171737a0
8. Cohen S.N., Chang A.C.Y., Boyer H.W., Helling R.B. Construction of biologically functional bacterial plasmids in vitro. *Proceedings of the National Academy of Sciences USA*, 1973, vol. 70, iss. 11, pp. 3240–3244. DOI: 10.1073/pnas.70.11.3240
9. Encyclopaedia Britannica. *Biotechnology*. 2024. Available at: <https://www.britannica.com/technology/biotechnology>
10. OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2016. *Biotechnology Update*. Paris: OECD Publishing, 2016.
11. Biotechnology definition. UNESCO, 2024. Available at: <https://vocabularies.unesco.org/browser/thesaurus/en/page/?uri=http://vocabularies.unesco.org/thesaurus/concept619>
12. Convention on Biological Diversity. Article 2. Use of Terms. United Nations, 1992. Available at: <https://www.cbd.int/convention/text/>
13. Hodge R. The future is bright, the future is biotechnology, *PLOS Biology*, vol. 21, no. 4. DOI: 10.1371/journal.pbio.3002135
14. Ludwig E. *Navigating Recent Developments in Biotechnology and Patent Law*. Ludwig APC, 2024. Available at: <https://ludwigiplaw.com/navigating-recent-developments-in-biotechnology-and-patent-law/>
15. Sanjukta M. BIOSECURE Act could signal a seismic shift for biopharma in US and China. *BioPharma Dive*, 2024. Available at: <https://www.biospace.com/policy/biosecure-act-could-signal-a-seismic-shift-for-biopharma-in-us-and-china>
16. Lee Y. Balancing Innovation and Ethics: A CRISPR Approach to Patent Law. *Columbia Undergraduate Law Review*, 2024. Available at: <https://www.culawreview.org/journal/balancing-innovation-and-ethics-a-crispr-approach-to-patent-law>
17. Meshaka D. The European Patent Office outlines a fragile ethical frontier. *InfOGM*, 2025. Available at: <https://infogm.org/en/the-european-patent-office-outlines-a-fragile-ethical-frontier/>
18. Morgan J.P. *Venture Monitor Q4 2024*. National Venture Capital Association, 2024, p. 35. Available at: <https://nvca.org/wp-content/uploads/2025/01/Q4-2024-PitchBook-NVCA-Venture-Monitor.pdf/>
19. U.S. Food and Drug Administration. *Biosimilar Action Plan: Balancing Innovation and Competition*. Washington, FDA Publications, 2024.
20. Biden J.R. *Advancing Biotechnology and Biomanufacturing Innovation for a Sustainable, Safe, and Secure American Bioeconomy*. The White House, 2022.

21. Loper Bright Enterprises v. Raimondo, 2023, p. 114.
22. DiMasi J.A., Grabowski H.G., Hansen R.W. Innovation in the pharmaceutical industry: New estimates of R&D costs. *Journal of Health Economics*, 2016, vol. 47, pp. 20–33. DOI: 10.1016/j.jhealeco.2016.01.012.
23. Manalac T. The Top 7 Biopharma Licensing Deals of 2024. BioSpace, 2025. Available at: <https://www.biospace.com/business/the-top-7-biopharma-licensing-deals-of-2024>
24. Han Y.P. Application of CRISPR/Cas9 technology in editing poplar drought resistance genes. *Molecular Plant Breeding*, 2024, vol. 15, no. 2, pp. 81–89. DOI: 10.5376/mpb.2024.15.0010
25. Intellectual Property. Biotechnology Innovation Organization (BIO), 2024. Available at: <https://www.bio.org/policy/intellectual-property>
26. Diamond v. Chakrabarty, 447 U.S. 303 (1980). Available at: <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/447/303/>
27. CRISPR-Cas: Navigating the Patent Landscape to Explore Boundless Applications. WIPO Global Health, 2024. Available at: <https://www.wipo.int/en/web/global-health/w/news/2024/crispr-cas-navigating-the-patent-landscape-to-explore-boundless-applications>
28. Biotechnology Licensing Deals Analysis Reveals Key Trends and Major Agreements from 2019-2024. Yahoo Finance, 2024. Available at: <https://finance.yahoo.com/news/biotechnology-licensing-deals-analysis-reveals-164900801.html>
29. University of South Florida Board of Trustees v. United States, 92 F.4th 1072. Federal Circuit, 2024. Available at: <https://www.lifesciencesperspectives.com/wp-content/uploads/sites/10/2024/02/University-of-South-Florida.pdf>
30. What Can You Expect From the New Product Liability Directive? Covington & Burling LLP, 2024. Available at: <https://www.cov.com/en/news-and-insights/insights/2024/10/what-can-you-expect-from-the-new-product-liability-directive>
31. Bonginkosi Sh. Using Patents as a Gavel: Governing Biotechnology with Ethical Licensing Restrictions. Stanford Law School, 2024. Available at: <https://law.stanford.edu/2024/10/14/using-patents-as-a-gavel-governing-biotechnology-using-ethical-licensing-restrictions/>
32. Gottlieb C. Delaware Court of Chancery Finds Buyer Failed to Use Commercially Reasonable Efforts in Pharma Milestone Payment Case. *Harvard Law School Forum on Corporate Governance*, 2024. Available at: <https://corpgov.law.harvard.edu/2024/09/17/delaware-court-of-chancery-finds-buyer-failed-to-use-commercially-reasonable-efforts-in-pharma-milestone-payment-case/>
33. Green M. The intersection of factual causation and damages in toxic substance litigation. *Georgetown Law Journal*, 2006, vol. 112, pp. 456–489. Available at: <https://core.ac.uk/download/pdf/232966824.pdf>
34. Marchant G.E. The liability implications of nanotechnology. *Stanford Environmental Law Journal*, 2013, vol. 32, no. 1, pp. 99–156.
35. Center for Biological Diversity v. United States Environmental Protection Agency, No. CV-20-00555-TUC-DCB, 2024 WL 455047, D. Ariz. 2024, Feb. 5. Available at: <https://www.courtlistener.com/docket/20684863/center-for-biological-diversity-v-united-states-environmental-protection/>
36. Mello M.M., Brennan T.A. The controversy over high-dose chemotherapy with autologous bone marrow transplant for breast cancer. *Health Affairs*, 2001, vol. 20, no. 5, pp. 101–117. DOI: 10.1377/hlthaff.20.5.101.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 3-son

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3